TERMINOLOGIYANING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI

Asadova Shahzoda Azizjon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti til va adabiyot yo‘nalishi
3.24-guruh 2-kurs talabasi
Tel raqam: +998959492006

ANNOTATSIYA: *Maqolada terminologiyaning rivojlanish jarayoni jahon va o'zbek tilshunosligi misolida tahlil qilingan. Termin va atama leksemalarining birlashtiruvchi va farqli tomonlari yoritib o'tilgan. Sohaviy terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari olimlarning fikrlari orqali isbotlangan.*

Kalit so'zlar: *termin, atama, lug'at, sohaviy terminlar, terminologiya, terminolog olimlar.*

ANNONTATION: *The article analyzes the development process of terminology on the example of world and Uzbek linguistics. The unifying and different aspects of term and term lexemes are highlighted. Specific features of field terminology are proven by the opinions of scientists.*

Key words: *term, term, dictionary, field terms, terminology, terminologists.*

АННОТАЦИЯ: *В статье анализируется процесс развития терминологии на примере мировой и узбекской лингвистики. Выделены объединяющие и различающие аспекты терминов и терминологических*

лексем. Специфика профессиональной терминологии доказана на основе мнений ученых.

Ключевые слова: *термин, термин, словарь, профессиональные термины, терминология, терминологи.*

Hozirgi tez sur'at bilan rivojlanayotgan davrda o'zbek tili terminologiyasining rivoji, uning pirovardida turli fan tarmoqlarning sohaviy terminologik lug'atlarini tuzish katta ahamiyat kasb etmoqda. Nafaqat lingvistika terminlari, balki sohalar terminologiyasi tadqiqi zamonaviy jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Gapimizning isboti sifatida turli xil terminlar yig'ilib, fanlar kesimida maxsus lug'atlarni tuzilgani, shu yo'nalishning mazmun-mohiyatini yetarlicha anglash uchun zamin yaratilganini alohida ta'kidlashimiz mumkin. Tilshunoslikda terminlarning o'ziga xos xususiyatga egaligi, ularning umumiy leksik tizimga kirmasligi, maxsus leksik tizim hosil qilishi qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Terminologiya yuzasidan izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar o'tgan asrda "atama"ni maxsus so'z, muallifning ongli so'z yaratish mahsuli sifatida, "termin"ni esa til umumiy tizimidagi alohida, aniq belgilangan quyi tizim sifatida ko'rib chiqdilar. Tilshunoslikda ma'lum tushunchalarni ifodalovchi umumiy va maxsus terminlar, termin va atama yuzasidagi qarashlar olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Terminga qo'yiladigan talablar, atamaning xususiyatlari, undagi ko'p ma'nolilikni ifodalash jihatlari, terminologik birliklarda omonim, sinonim, antonim, polisemiya hamda polifunksionalilik xususiyati mavjudligi, so'z birikmalari, shuningdek, turli xil so’zlar bilan

yetkazilishi, ifodalanishi ko’plab tadqiqotlarga yoritilganiga guvoh bo’lyapmiz. Termin leksemasi lotincha "terminus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, oxiri, chek, chegara, tugash degan ma'nolarni bildiradi.[1] "Termin o'z lingvistik tabiatiga ko'ra, ilmiy- texnik yoki boshqa kasbiy tushunchalarni aniq, ixcham ifodalashi va axborotga boyligi bilan ajralib turadi".[2] Terminning aksariyat zamonaviy ta'riflarida uning tushuncha bilan bog'liqligi ilgari suriladi va bu xususiyat ko'rib chiqilayotgan lingvistik mohiyatni aniqlash uchun eng muhim deb e'tirof etiladi. Masalan, A.V.Superanskayaning "fanda termin va tushunchaning o'zaro bog'liqligi birinchi o'ringa chiqadi" [3], fikriga e'tibor qarataylik. "Termin ortida doimo fikrlash obyekti turadi, lekin umumiy fikr emas, balki ma'lum bir soha bilan chegaralangan maxsus fikr. Bu termin bevosita ilmiy konsepsiya bilan bog'liq". "Terminlar maxsus tushunchalarning lingvistik ifodasi sifatida kasbiy, ilmiy(maxsus) bilimlarni qayta ko'rsatishning ma'lum usuli hisoblanadi. Obyektdagi umumiy va tabiiy narsani belgilaydigan maxsus tushunchani til belgisi orqali ifodalashda atama bilish vositasiga aylanadi". Hozirgi vaqtda termin semantikasi so'z semantikasidan farqlanib, A.A.Potebnyaning "Termin maxsus tushunchaning nomlanishi sifatida foydalanilganda tilning leksik birligi terminologik, konseptual ma'noga ega bo'lib, u o'ziga xos lug'aviy ma'no ustiga qo'yiladi".[4] S. Usmonov, M. Mirhamidov, S. Hasanovlarning fikricha: " atama so'zining ma'nosi termin so'zining ma'nosiga nisbatan keng bo'lib, u barcha narsalarning nomi sifatida

[1] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
[2] Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. – Moskva: Nauka, 1977.
[3] Superanskaya A.V. Obshchaya terminologiya: Voprosy teorii. – Moskva: Nauka, 1989.
[4] Potebnya A.A. Mysl i yazyk. – Moskva: Labirint, 1999.

tushuniladi, termin esa muayyan bir tor sohada qo'llanuvchi rasmiylashgan so'zdir.[5] Shu ma'noda, "termin" tushunchasi «atama» tushunchasining ichiga kiruvchi ilmiy-lug'aviy birlikdir.[6]

Terminologiyaga oid muammolar jahon tilshunosligida ham atroflicha o'rganilgan. D.S.Lotte, V.P.Danilenko, T.L.Kandelaki, V.M.Leychikka tadqiqotlar olib borgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida S.Ibrohimov, S.Akobirov, S.Usmonov, R.Doniyorov, N.Mamatov, A.Hojiyev, H.Shamsiddinov, Z.Mirxoliqov, I.Pardayeva, N.Usmonov, A.Sh.Sobirov, L.Yuldashev, Z.Isaqova, G'.Ismailov, A.To‘raxojayeva, A.Madvaliyev singari olimlarning ilmiy izlanishlarida ko'zga tashlanadi.

Tilshunoslikda termin atamasi bir-biriga o'xshash variantlarda talqin qilinadi. Sh.Qo'chqorovning fikricha, "termin kasbiy ma'no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim obyektlar hamda ularning o'rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtayi nazaridan bilish, ularni o'zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so'z yoxud birikmalardir’’.[7] X.Narxodjayeva terminning quyidagi xususiyatlarini sanab o'tadi:

1) termin umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'lgan ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik yoki birikmalardir;

2) termin aniq narsa-predmet, ashyo, mavhum tushunchalarning maxsus nomidir,

3) termin uchun muayyan ta'rif zarur bo'lib, uning yordamida ma'lum atama mazmunini aniqroq ifodalash, ularning birini ikkinchisidan ajratish, ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirish hamda ularning farqlovchi belgilarini ravshanroq ko'rsatish mumkin.

[5] Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1972.
[6] Усмонов С.Мирхамидов М., Хасанов С. Юристнинг нутқ маданияти. Т.: 2007.-1176.
[7] Qo'chrorov Sh. Diplomatik til asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2006.-76 b.

Fransuz tilidagi sport atamalarining nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyo Mas mediasi o'ziga xos o'rni bor, chunki Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 2 ta rasmiy tili bor: ingliz va fransuz. Ko'plab sport turlarida fransuzcha atamalar, buyruqlar, so'zlar qotib qolgan. Ayniqsa, qilichbozlik sportida. Bu sportda barcha jarayon fransuz tilida olib boriladi. Olimpiya o'yinlarining ochilish marosimida ham, albatta, fransuzcha nutq bo'ladi. Bularning barchasi zamonaviy Olimpiya o'yinlarining asoschisi Pyer de Kubertenning sa'yi harakatlari bilan bog'liq. U o'z tilini sport olamida ajralmas qilib qo'yib ketdi. NR (National record) - Bu o'sha davlat vakillari uchun milliy rekord. AR (Area record) musobaqa bo'li o'tayotgan inshoot uchun xos rekord. CR (Champinships record) O'tkazilayotgan musobaqa uchun rekord. Agar natija Osiyo chempionati doirasida o'tkazilayotgan bo'lsa, Osiyo rekordi. OR (Olympic record) Olimpiya rekordi. Olimpiya o'yinlari vaqtida qayd etilgan rekord. WR (World record) - jahon rekordi.[8]

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'tgan asrdan boshlab terminologiya faniga oid qator ilmiy anjumanlar o'tkazildi, o'ntaga yaqin monografiya va 20 dan ortiq maqolalar to'plami tayyorlandi. Bundan tashqari mingdan ortiq doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Hozirgi kunda terminlarni o'rganish jadal rivojlanib va ko'plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, terminologik va ensiklopedik lug'atlar, jumladan, politexnik, ilmiy va kasbiy terminlar lug'atlari chop etilishi, xorijiy davlatlardan qabul qilinayotgan katta hajmdagi ma'lumotlar terminlarni bir tildan boshqa tilga o'girish muammosi atroflicha hal qilinmoqda.

[8] Akobirov S.F, Til va terminologiya, T., O'zbekiston. 1968y. 22-23 betlar